

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTI

UDC (UO‘K, УДК): 82.02

PROFESSOR BOLTABOYEV TADQIQOTLARIDA FITRAT IJODINING YETAKCHI XUSUSIYATLARI¹⁷*Vositov Shavkatjon Abdivaxabovich**Andijon Davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi**E-mail: vositov1970@gmail.com**Orcid ID 0009-0002-9097-3094***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada professor Hamidulla Boltaboyevning ilmiy merosi asosida Abdurauf Fitrat ijodining badiiy va ijtimoiy xususiyatlari tahlil etiladi. Asarda Fitratning o‘zbek adabiyotidagi tutgan mavqei, uning asarlarida ifodalangan milliy tafakkur, jamiyatga munosabat va zamonaviylik g‘oyalari Boltaboyevning konseptual qarashlari asosida yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Fitratning badiiy asarlarini ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin qilgan Boltaboyevning metodologik yondashuvini ochib berish hamda uning til, uslub va badiiy tafakkurdagi yangiliklarga bergan bahosini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Tadqiqot obyekti sifatida professor Hamidulla Boltaboyevning ilmiy faoliyati va uning Fitratshunoslikdagi o‘rni belgilab olingan. Maqolada Boltaboyevning Fitrat asarlariga tarixiy va estetik yondashuvi, adabiy jarayonlarga bergan baholari, shuningdek, adabiyotshunoslikda qo‘llagan ilg‘or metodlari tahlil qilinadi. Fitratning adabiy merosini zamonaviy ilmiy mezonlar asosida sharhlagan Boltaboyev qarashlari orqali Fitrat asarlaridagi uslubiy xususiyatlar, tildagi yangilanishlar va milliy g‘oyalar keng yoritiladi.

Maqola Boltaboyev ilmiy faoliyatining o‘zbek adabiy tanqidchiligidagi ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga, Fitrat asarlarini yangi ilmiy yondashuvlar asosida talqin etish yo‘llarini ham ochib beradi.

KALIT SO‘ZLAR

Milliy va ijtimoiy o‘ziga xosliklar, badiiy uslub, milliy an’analar, zamon, jamiyat, adabiy tahlil, Fitratning madaniy merosi.

Received: May 1, 2025**Accepted:** May 28, 2025**Available online:** September 3, 2025

¹⁷**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Vositov Sh. Professor Boltaboyev tadqiqotlarida Fitrat ijodining yetakchi xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 236-248.

LEADING CHARACTERISTICS OF FITRAT'S WORKS IN PROFESSOR BOLTABOYEV'S STUDIES

Vositov Shavkatjon Abdivaxabovich

Independent Researcher at

Andijan State Institute of Foreign Languages

E-mail: vositov1970@gmail.com

Orcid ID 0009-0002-9097-3094

ANNOTATION

This article analyzes the artistic and social characteristics of Abdurauf Fitrat's work based on the scholarly legacy of Professor Hamidulla Boltaboyev. The work illuminates Fitrat's position in Uzbek literature, the national thinking expressed in his works, his attitude towards society, and ideas of modernity through Boltaboyev's conceptual perspectives. The main aim of the research is to elucidate Boltaboyev's methodological approach in interpreting Fitrat's literary works within a socio-cultural context, and to critically examine his assessment of innovations in language, style, and artistic thinking on a scientific basis.

The object of study is Professor Hamidulla Boltaboyev's scholarly activities and his role in Fitrat studies. The article examines Boltaboyev's historical and aesthetic approach to Fitrat's works, his evaluations of literary processes, as well as the advanced methods he employed in literary studies. Through Boltaboyev's views, which interpreted Fitrat's literary heritage based on modern scientific criteria, the stylistic features, linguistic innovations, and national ideas in Fitrat's works are extensively explored.

The article not only highlights the significance of Boltaboyev's scholarly work in Uzbek literary criticism but also unveils new approaches to interpreting Fitrat's works based on contemporary scientific methodologies.

KEY WORDS

National and social particularities, artistic style, national traditions, time, society, literary analysis, Fitrat's cultural legacy.

**ВЕДУЩИЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА ФИТРАТА
В ИССЛЕДОВАНИЯХ ПРОФЕССОРА Х. БОЛТАБАЕВА****Воситов Шавкатжон Абдивахабович**

Независимый исследователь
Андижанский государственный
институт иностранных языков
E-mail: vositov1970@gmail.com
Orcid ID 0009-0002-9097-3094

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе научного наследия профессора Хамидуллы Болтабаева анализируются художественные особенности и социальное измерение творчества Абдурауфа Фитрата. В работе через призму научной концепции Х. Болтабаева освещается роль Фитрата в узбекской литературе, выраженные в его произведениях национальное мышление, отношение к обществу и передовые идеи. Основная цель исследования – раскрыть методологический подход Х. Болтабаева к интерпретации художественных произведений Фитрата в социокультурном контексте и научно проанализировать его оценку, данную новаторству писателя в языке, стиле и художественном мышлении.

Объектом исследования выбрана научная деятельность профессора Хамидуллы Болтабаева и его роль в изучении творчества Фитрата. В статье анализируется историко-эстетический подход Х. Болтабаева к произведениям Фитрата, передовые методы исследования, применяемые им в литературоведении, а также его оценки литературного процесса. Через призму взглядов Х. Болтабаева, комментирующего литературное наследие Фитрата на основе современных научных критериев, широко освещаются стилистические особенности, языковые новшества и национальные идеи в произведениях Фитрата.

Статья не только демонстрирует значение научной деятельности Х. Болтабаева для узбекской литературной критики, но и раскрывает пути интерпретации произведений Фитрата на основе новых научных подходов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Национальные и социальные особенности, художественный стиль, национальные традиции, время, общество, литературный анализ, культурное наследие Фитрата.

KIRISH

Fitrat ijodining o'rganilish masalalari mustaqillik yillaridan ancha keng yo'lga qo'yildi. Adibning ijodiga bo'lgan munosabat sekin asta ilmiy o'rganila boshlandi. Jadidshunos Ilmoh G'aniyev ta'kidlaganidek: *“Fitrat hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi va taqdiri ham murakkab kechdi”*. (G'aniev I, 2005.4). O'zbek adabiyotshunoslari, tilshunoslari va tarixshunoslari Fitrat asarlarini turli rakursdan o'rganishdi.

O'zbek olimlaridan Hamidulla Boltaboyevning Fitrat ijodi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir. Olimning *“Fitrat va jadidchilik”* deb nomlangan risolasida Fitratning *“Sayha”* to'plamining ahamiyati va nomlanishi bo'yicha quyidagi ta'rifni o'qishimiz mumkin: *““Sayha” so'zining (forscha) tarjimasi “na'ra, bong” bo'lib da'vat va chaqiriq ma'nolarida qo'llanilgan. To'plamga to'qqiz g'azal, ikki tarkibband va bir necha qit'a kiritilgan. Bu she'rlar 1914- yilning iyul oyida “Sadoi Turkiston” da har bayt ostida turkcha mazmuni bilan birgalikda chop qilingan”* (Boltaboev H, 2007.- B.30). Olimning ushbu ta'rifidan to'plamdagi she'rlar qanday turlardan iboratligi va Turkistondagi dastlabki nashri haqida ma'lumot olsak bo'ladi.

H.Boltaboyevning shu risolasidagi *“Fitratning “Sayha” qismatidan lavhalar yoki shoir Fitrat haqida”* nomli maqolasida adibning dastlabki to'plamlaridan bo'lmish *“Sayha”* she'rlar to'plami Turkistonda chop etilishiga Sayyid Olimxon ruxsat bermagani tufayli Istanbulda adibning o'z hisobidan nashr etilganini yozadi”. (Boltaboev H, 2007. 71). Hamidulla Boltaboyev shu o'rinda ushbu maqolada: *“Bu she'riy asarlarning har bandidan keyin turk tilida uning mazmuni ham bayon etilgan”* (Boltaboev H, 2007. 30)- deya yozadi. Demak, Fitrat ijodining o'rganilishi, ayniqsa, mustaqillik davrida yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lib, bu jarayonda professor Boltaboyevning ilmiy izlanishlari muhim o'rin egallaydi. Boltaboyev tomonidan Fitrat asarlariga berilgan talqinlar adib ijodining tarixiy, estetik va ijtimoiy qirralarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu sababli, mazkur maqolada Hamidulla Boltaboyevning Fitrat ijodini o'rganishdagi ilmiy

yondashuvlari tahlil qilinadi va ularning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ochib beriladi.

ASOSIY QISM

Fitrat nazdida millatni uygʻotish uning ongini yuksaltirishning muhim yoʻnalishlaridan biri-matbuot, adabiyot va sanʼat orqali xalqqa taʼsir etish. Shuning uchun u yuqoridagi jadidchilik harakati va turli xil publitsistik asarlar yozishda faol boʻldi. Ushbu maqolada olim Fitratning sheʼrlari faqat sheʼriy toʻplam bilan chegaralanmagani, balki shoirning oʻzbek tilida bitilgan koʻpgina sheʼrlari 20-yillarda vaqtli matbuot sahifalarida: “Inqilob”, “Qizil qalam”, majmualarida eʼlon etilgani oʻquvchilarga maʼlum ekanligini eʼtirof etadi. Fitratning 1923-yilda “Hind ixtilolchilari” asarining Berlin nusxasida bosilgan va bosilmagan asarlari roʻyxati keltiriladi va ular orasida shoirning eʼlon qilinmagan turkcha sheʼrlar kitobi boʻlmish “Uchqun” haqida maʼlumot berilganini yozadi. Fitrat asarlari ichida mashhur tragediyalaridan boʻlmish “Abulfayzxon”ning Moskva nashrida Fitratning “Uchqun” nomli sheʼrlar kitobi sotuvga chiqqani (hatto kitobchanning narxi ham koʻrsatilgan) xabari keltiriladi. Ammo bu toʻplam Rossiya shaharlarida ham, xorijda ham shoirning oʻz yurtida ham topilmaganini Hamidulla Boltaboyev alohida taʼkidlab oʻtadi. Koʻrinib turibdiki, H.Boltaboyev oʻzining ““Sayha” qismatidan lavhalar yoki shoir Fitrat haqida” nomli maqolasida Fitratning aynan shoir sifatida olim va adabiyotshunoslar qay tarzda qabul qilganini yoritishga erishgan. Bu maqolada olim “Sayha” toʻplamining Fitrat ijodidagi ahamiyati va ushbu toʻplamning taqdiri qanday kechgani haqida maʼlumot beradi.

“Fitrat sheʼriyati, ayniqsa, uning lirikasi (shoirning oʻz tilida aytganda, “rubobiy sheʼrlari”) nafis va buyuk Sharq sheʼriyatining bor goʻzalliklaridan toʻyingan, uni oʻziga xos suratda ichdan yangilashga kamarbasta sheʼrlardan tarkib topganini sezmaslik mumkin emas” (Boltaboev H, 2007. 72) deya toʻxtalib oʻtadi Hamidulla Boltaboyev ushbu maqolada. “Fitrat adabiyotshunos olim sifatida Sharq sheʼriyatining jozib xislatlarini aksariyat ilmiy asarlarida tahlil etgan boʻlsa, shoir sifatida sheʼrlarida oʻsha jozibaning oʻz zamonidagi nozik tovlanishlarini koʻrsata

bildi” (Boltaboev H, 2007. 73). Olim o‘zining ushbu maqolasida Fitratning shoir sifatida o‘zbek adabiyotshunosligida o‘z o‘rniga ega ekanligini, bu jihatni nafaqat Turkistonning mashhur adiblari, balki jahonning yetuk olimlaridan Ahmad Zaki, Validiy To‘g‘on, E.Ollvort, Boymirza Hayit, Mehmed Saray, Yusuf Avji kabi olimlar o‘z ilmiy ishlarida Fitrat nafaqat dramaturg, nosir va maqolanavis sifatida tilga olingan, unga doim “shoir” sifatlashi ham qo‘shib aytilgan. Hamidulla Boltaboyev o‘zining “Fitrat va jadidchilik” deb nomlangan risolasida Fitratning “Sayha” nomli to‘plami haqida Sadridin Ayniyning quyidagi ta‘rifini keltiradi: *“Sayha. Milliy she‘rlar” to‘plami nafaqat Turkistonda, balki Turkiya, Germaniya, Rossiyaning markaziy shaharlarida tez tarqalib, o‘quvchilarga “elektr quvvati” kabi kuchli ta‘sir etdi*” (Boltaboev H, 2007. 7). Shuningdek S. Ayniy “Namunai adabiyoti tojik” ni tuzganda ham (Moskva, 1926) mana shu to‘plamdan bir necha she‘rlarni keltirib, Fitratni XX asr fors-tojik she‘riyatining asoschisi sifatida ko‘rsatadi (Boltaboev H, 2007. 31). H.Boltaboyevning fikricha “Sayha” to‘plamiga kirgan she‘rlarining ko‘pchiligini tahlil qilishga imkon bo‘lmasa-da, ularning barchasi sharq she‘riyati go‘zalligi va nafisligidan bebahra qolmagan. H.Boltaboyev “Fitrat va jadidchilik” deb nomlangan risolasida J.Murtazoyev va X. Sohibovlarning “Fitratga qarshi fitna” mavzusidagi maqolasidan iqtibos keltirishicha: S.Ayniyning 1921-yilda Fitratning dastlab yozilgan ko‘p asarlari va ularning orasida “Sayha” to‘plami ham maxfiy ravishda Buxoroga olib kelingani haqidagi qaydlari NKVD tomonidan Fitratga qarshi asos bo‘lib xizmat qildi. Adibni jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha ochilgan 4269-raqamli “ish” ga ilova tarzida uning hujjatlariga tikib qo‘yilgan (Boltaboev H, 2007. 33).

NATIJALAR

H.Boltaboyevning “Xorijiy Fitratshunoslikdan lavhalar” nomli maqolasida ta‘kidlashicha Fitratning aynan “Sayha”, “Munozara”, “Sayyohi hindi” kabi asarlari xorijiy olimlarning yangi ilmiy tadqiqotlarini yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Fitratning dramatik asarlari haqida H.Boltaboyev: *“Fitratning dramatik asarlari, asosan, 1918-1925-yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lishiga qaramay, bo‘lg‘usi dramaturg salohiyatining olis shabadalari 1909-yildayoq Farangi va Mudarris (“Munozara”), Men va Usta, Qozi va Men (“Hind sayyohi”) dialoglarida sezilgan edi. Bu asarlar hind o‘lkasi voqealariga bag‘ishlanadimi (“Hind ixtilolchilari”, “Chin sevish”), Buxoro tarixining qorong‘u qatlamlaridan bahs yuritadimi (“Abulfayzxon”, “Arslon”) yoxud diniy syujet materiallariga asoslanadimi (“Shaytonning tangriga isyoni”, “Ro‘zalar”) ular turli rishtalar bilan o‘lka tarixiga bog‘lanadi, yurt kelajagiga dildan qayg‘uruvchi “vatanparast” shoirning iste‘dodi ko‘lamidan dalolat beradi”* (Boltaboev H, 2007, 11) deya e‘tirof etadi. Olim ta‘kidlaganidek Fitratning dramatik asarlari ichida “Abulfayzxon” tarixiy dramasi katta ahamiyatga ega. Bu asar bo‘yicha ko‘p o‘zbek olimlari ilmiy maqolalar chop etishgan va tadqiqotlar olib borishgan. Ulardan Fitratshunos Ilhom G‘aniyev o‘zining Fitrat va fitratshunoslik risolasida: *“Fitratning ijodi, ayniqsa, “Abulfayzxon” tragediyasi o‘tkinchi aqidalar, muvaqqat mezonlar, yuqori tashkilotlar ko‘rsatmalaridagi “haqiqatlar”ga, tayanib yozilmagani uchun ham bugunga qadar o‘quvchi, tomoshabin va adabiyotshunoslar diqqatini o‘ziga tortayotir”* (G‘aniev I, 2005, 216) deb yozsa, M. Umarova o‘zining tadqiqotida Shekspirning “Richard III” tarixiy dramasi vaqt kontsepsiyasini Fitratning “Abulfayzxon” tarixiy dramasi (Umarova M, 2013, 14) bilan qiyosiy aspektda o‘rganadi.

Hamidulla Boltaboyevning yozishicha: “Fitrat 1923-yilning iyunida Buxoro jumhuriyatidagi mas‘ul vazifalardan “ozod” qilindi. Oradan bir-ikki oy o‘tar – o‘tmas, do‘stlarining ko‘magi bilan Buxoroda qolishi xavfli sanalib, Moskvaga chaqirib olingan. Lazerevlar Jonli sharq tillari oliygohida sharq (arab, fors va turk) tillari va adabiyotidan dars berishi barobarida, ayni shu davrda uning “Abulfayzxon”, “Bedil”, “Shaytonning tangriga isyoni” (G‘aniev I, 2005.- 77) kabi chuqur va go‘zal asarlari bosilgan. Ko‘rinib turibdiki, H.Boltaboyev ushbu asar Fitratning Moskvadalik chog‘larida yozilgan va ayni davrda adib sharq tillari oliygohida faoliyatini olib borganligi haqida ma‘lumot beradi. “Abulfayzxon”

dramasi bilan bir qatorda uning ko‘p dramalari taqdiri adibning taqdiridek fojiali bo‘lib, Boltaboyevning ta‘biricha : *“Bu asarlar o‘z davrida hali siyohi qurimay turiboq sahnaga chiqqan asarlar hisoblanadi va aynan o‘sha dramalari qayta nashr qilinib, xalq e‘tirofiga sazovor bo‘ldi”* (Boltaboev H, 2007. 81).

“Fitrat dramaturgiyasining shoh asari, shubhasiz, “Abulfayzxon” fojiasidir”-deya yozadi Hamidulla Boltaboyev. *“Asarda ashtarxoniyalar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon davlatining tanazzuli hamda mashhur Eron shohi Nodirshoh yordamida Buxoroda mang‘it amirlarining hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq tarixiy voqealar qalamga olinadi”* (Boltaboev X, 2000. 22). Haqiqatdan ham ushbu tarixiy drama o‘zbek adabiyotshunosligida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy drama maqomiga sazovor bo‘lgan Turkiston o‘lkasining real voqealarini badiiy ifoda etgan unutilmas dramasi hisoblanadi. Ushbu drama haqida olim o‘zining ko‘p ijobiy fikrlarini beradi. Garchi bu asar necha yillar davomida tanqid ostiga olinib kelinsa-da mustaqillik sharofati bilan ushbu drama yana kitobxonlar e‘tiboriga tushdi.

Fitratning eng ko‘p nashr etilgan asarlaridan *“Qiyomat”* xayoliy hikoyasi bo‘lib, bu asar oltmish yil mobaynida o‘n martaga yaqin bosilgan asar hisoblanadi. *“Asarning qayta-qayta nashr etilishining sababi faqat uning badiiy qimmatigina emas, balki mavzu ateistik deb gumon qilinganligi uchun uning nashriga turg‘unlik yillarida mone‘lik qilishmagan”* (Boltaboev H, 2007. 9) deya e‘tirof etadi H.Boltaboyev. Ushbu hikoya juda mashhur bo‘lib, u haqida xorijlik olimlardan E.Olvors, I.Baldauf, L.Klimovichlarning maqola va tadqiqotlari mavjud.

Hikoya 1935-yilda asar syujeti saqlangan holda muallif tomonidan qayta ishlanib, nashr etilgan. H.Boltaboyev ta‘biricha: *“Keyingi nusxaning hajmi bir bosma toboq atrofida. Bizningcha, dastlabki nusxa nisbatan puxta, tugallangan asar sifatida yozilgani, davr “so‘llik” lari deyarli uchramagani uchun ham, unga asosiy nusxa sifatida qaralishi kerak. Ushbu asar mavzusi “ateistik” deb gumon qilingani uchun ham, Fitratning sovet davrida eng ko‘p marta nashr qilingan yagona asaridir”* (Boltaboev X, 2000. 250). Olim yana ushbu hikoyaning keyingi nusxasini shu tarzda tasvirlaydi: *“Keyingi nusxada ko‘knorixo‘r Ro‘ziqul butun umri davomida boylar xonadonida xizmat qilgan shaxs sifatida tasvirlanib, Ahmadboy, Juma tog‘a*

kabi “zamonaviy” qahramonlar kiritilgan. Bu bilan asar hajmi kengayib, mazmun 30-yillarning 2 chi yarmidagi siyosiy qarashlar talabiga moslashtirilgan, natijada birinchi nusxadagi joziba yo ‘qolib, undagi kinoya ruhi tarqalib ketgan” (Boltaboyev H, 2022, 23).

Fitrat ijodini o‘rganish necha yillar davomida turli qarshilik va tuhmatlarga uchragani, ayniqsa, uning ijodi Hamid Olimjon tomonidan ko‘p tanqid qilingani haqida Hamidulla Boltaboyev o‘zining “Noma’lum Fitrat” nomli maqolasida to‘xtalib shunday yozadi: *“Shoirimiz uning “millatchiligi” ni asoslash uchun esa e’lon qilinmagan “Begijon”, “O‘g‘uzxon”, “Temur sag‘anasi” kabi asarlaridan misollar keltiradi (shuning uchun bo‘lsa kerak, mazkur dramalar bilan birgalikda “Qon”, “Abo Muslim” kabi asarlar ham shu paytgacha e’lon etilmay qolib ketgan). Maqola Fitrat ijodini o‘rganishga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdiki, natijada uning asarlari uzoq vaqtga qadar deyarli o‘rganilmay kelindi”* (Boltaboev H, 2007. 11).

O‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan Fitrat o‘zining ilmiy tadqiqotlarida Amir Temur nomini ko‘p marotaba tilga olib, u yashagan davr haqida ham ilmiy ma’lumotlar berish barobarida, Amir Temur siymosini o‘zining “Temur sag‘anasi” nomli asariga muhrlab qoldirgan. “Dramaturgning “Temur sag‘anasi” asari juda ko‘p adabiy janjallarga sabab bo‘lgan” (Boltaboev H, 2007. 81) deya yozadi H.Boltaboyev. *“Bu asar vositasida Fitrat xuddi avvalgi publitsistik asarlari kabi yurtdoshlariga murojaat qiladi, uni o‘zligini eslashga, bu qorong‘ulik va g‘aflatdan chiqib ketmoqqa da’vat etadi”* (Boltaboev H, 2000. 18). Bu asar 1919-1920-yillarda Samarqand va Toshkent teatr sahnalarida qo‘yilgan bo‘lsa ham uning matni bizgacha saqlanib qolmagan.

Hamidulla Boltaboyevning ma’lumot berishicha Fitratning Berlinda nashr etilgan “Hind ixtilolchilari” nomli asarining orqa muqovasida adibning “bosilmagan” asarlari rukni bilan “Temur sag‘anasi” asari “bir pardali drama” deb tanishtiriladi (Boltaboev H, 2007. 82). Bu asar “Chig‘atoy gurungi” dasturi doirasidagi badiiy asarlardan bo‘lgani uchun u tashkilot yopilganidan so‘ng asar ham o‘z –o‘zidan g‘oyib bo‘ldi. *“Buyuk bobomiz Temurning so‘zlarini sharhlashdan o‘zimizni tiyib tursak ham, Fitrat Amir Temurning ko‘zi bilan davr*

voqealarini ko'zdan kechirgan, uning ruhi bilan anglagan va o'lkani "kelgusidagi buyuk mozorlik holi" dan qutqarish uchun shu kundayoq kurashga bel bog'lash kerak, degan mantiqni ifoda qila olgan" (Boltaboev H, 2007. 84). Ko'rinib turibdiki, Fitratning bu asari matni to'la saqlanib qolmasa-da ushbu asar haqidagi fikrlardan bu drama qay darajada muhim ahamiyat kasb etganini ushbu satrlardan anglash mumkin. Boltaboyev aytganidek "Anglashiladiki, Fitrat dramasi, o'zi ixcham, bir pardali asar sifatida sahnaga chiqqani bilan, uning ta'sir doirasi va voqealar ko'lami keng bo'lgan" (Boltaboev H, 2007. 85). Ushbu asar orqali vatanni ardoqlash, o'z xalqiga mehrlilik bo'lish, ajdodlar ruhini doim shod etish kabi buyuk xislatlarga ega bo'lish va yosh avlodni shu jihatlar bilan tarbiyalash taqozo etiladi.

Fitratning Moskvadalik davrida yozilgan asarlaridan yana biri "Shaytonning tangriga isyoni" she'riy dramasidir. Ushbu asar haqida H.Boltaboyev alohida to'xtalib, shayton obrazi qadim-qadimdan mavjud ekanligini yozib, ushbu pyesada Quroni Karimning "A'rof" surasida bayon qilingan 11-12 oyatidan misol keltirilganligini ta'kidlaydi. Asar xorijda ham mashhur bo'lib, xususan, nemis olimasi Ingeborg Baldauf uni olmonchaga tarjima qiladi, uning ilk nashri bilan qiyoslab, u haqdagi maqola bilan birga chop etadi. "Ruhi va uslubi jihatidan "Ilohiy komediya"ga yaqin turuvchi (N.To'raqulov) bu ikki asar o'z zamonasidagi sotsiyal adolatsizliklarga qarshi qaratilgan, diniy, mifologik syujetni qayta ishlash asosida yaratilgan chuqur satirik asar sifatida o'rganilishi lozim" (Boltaboev H, 2000. 26) deya e'tirof etadi olim.

Fitratning yana bir "Arslon" nomli dramasi 1926-yilda nashr etilib aynan shu yilda sahnalashtirilgan bo'lib, bu bo'yicha H.Boltaboyev "Asarning 1996- yildagi nashri (Fitrat. Chin sevish. T., G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996) bilan solishtirilib, qayta nashrga tayyorlandi" –deb yozadi, shuningdek olim "siyosiy hayotdagi yer islohotining o'tkazilishi ushbu asarning nashr etilishiga turtki bo'lgani" (Boltaboev H, 2003. 241) ni aytadi. Olim 2022-yilda chop etilgan o'zining "Jadid adabiyoti namoyandalari. Abdurauf Fitrat. Saylanma."-deb nomlanuvchi kitobida ushbu asar haqida shunday misralar keltiradi: "Toshkentda "Arslon" (Burung'i Buxoro xonligida yashagan dehqonlar hayotidan olingan 5 pardali

drama) bosilib chiqdi. Asardagi Arslon, Botur, To'lg'un kabi obrazlar vositasida dehqonning ahvoli g'oyat qiyin kechgani, uni bu qiyinchiliklardan olib chiqish uchun esa qator tadbir va islohotlar zarur ekani ta'kidlanadi. Asarning bu ruhdagi pafosidan ilhomlangan 20-yillarning tanqidchilari: "Sahnamiz eski asarlardan ohistalik bilan bo'lsa-da qutulmoqda va ularning o'rnini sinfiy ruhda yozilgan asarlar ishig'ol etmoqdalar. 24-fevralda xalq teatrusida o'ynalg'an "Arslon" pyesasi bunga dalil"- deb yozgan edi. Bu asar haqida shu kabi talqinlar keyinroq Tursun Sobirov va Ahmad Aliyev maqolalarida ham ko'rinadi"(Boltaboyev H, 2022. 25). Fitratning "Arslon" dramasi matni H.Boltaboyev tahriri ostida 5-jildlik tanlangan asrlarining 3- jildida keltirilgan.

Fitratning tojik tilida yaratilgan ilk asari bo'lmish "Vose' qo'zg'oloni" dramasi ham o'z vaqtida mashhurlikka erishgan asarlardan hisoblanadi. Ushbu drama "Sho'rishi Vose' " nomi bilan 1927-yilda Samarqandda chop etildi. Undagi voqealar 1885-yil Abdulahadxon hukmronligi davrining boshida Baljuvon viloyatida yuz bergan tarixiy voqealarni aks ettiradi ya'ni Buxoroda Abdulvose ismli juvuzkash yigit boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olonning badiiy ifodasidir. H.Boltaboyev ushbu drama haqida shunday yozadi: "*Fitrat ana shu tarixiy voqealar tizimini tomoshabin ko'z o'ngida qayta tiriltirar ekan, uning dramaturgiya sohasidagi tajribasi va mahoratining ko'lami to'liq o'z aksini topgani yo'q, chunki adib o'z asarini teatr san'atining yangilanishini, sahna uchun kerakli asbob-uskunalar yetishmasligini ham hisobga olgan holda yaratadi*" (Boltaboyev H, 2022.26). Bu asarning yaralishi tojik adiblariga ham ruhan turtki bo'lib, M.Tursunzoda, A.Dehotiy, G'.Abdullo, S.Ulug'zoda kabi adiblarning yangi asarlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, professor Hamidulla Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil etishdagi yondashuvi o'zining keng qamrovliligi va ilmiy chuqurligi bilan ajralib turadi. U Fitrat asarlarini nafaqat badiiy, balki falsafiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda ham o'rganib, adibning ma'naviy olami va zamonasi

bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi. Professor Boltaboyev Fitratning asarlarida aks etgan milliy g‘oya, erkinlik, ma’rifatparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar masalasini alohida e’tibor bilan yoritgan.

Uning tadqiqotlarida Fitratning o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bo‘lgan munosabati, adabiyotdagi islohotchi pozitsiyasi va xalqparvarlik ruhini o‘zida aks ettirgan yondashuvi aniq ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, professor Boltaboyev Fitrat ijodidagi milliy o‘zlik, o‘zgaruvchan dunyoqarash, madaniy merosga e’tibor va zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlikni ilmiy asosda tahlil qilgan.

Shuningdek, Boltaboyevning ilmiy izlanishlari Fitrat asarlarini bugungi kun adabiy tafakkuri va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan qayta baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. U Fitrat merosini faqat tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun dolzarb g‘oya va mafkurani ifodalovchi asarlar sifatida tahlil qilgan. Demak, professor Boltaboyev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar Fitrat ijodini zamonaviy adabiy jarayonlarga bog‘lab, uning ma’naviy-estetik ahamiyatini, adabiy tafakkurimizdagi o‘rnini va doimiy yangilanib boruvchi ma’naviy meros sifatidagi qadr-qimmatini yuksak darajada ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Болтабоев Х. Фитратнинг Истанбул даврини тавсифловчи манбалар./ Фитрат ва жадиличилик: Илмий тадқиқий мақолалар. –Тошкент: А.Навоий номли Ўзбекистон кутубхонаси , 2007.- Б.30.
2. Ғаниев И.Фитрат ва фитратшунослик. .-Тошкент: Фан , 2005.- Б.8В.216
3. Умарова М. Тарихий драмада бадиий вақт: Шекспир ва Фитрат.- Тошкент, 2013. -Б.114
4. Болтабоев Х. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар.- 1 жилд –Тошкент: Маънавият, 2000. -Б.22.
5. Boltaboyev H. Jadid adabiyoti namoyandalari. Abdurauf Fitrat. Saylanma.- Toshkent: Zabarjad media, 2022.-В.23

6. Болтабоев Ҳ. Номълум Фитрат./ Фитрат ва жадишлик: Илмий тадқиқий мақолалар. –Тошкент: А.Навоий номли Ўзбекистон кутубхонаси , 2007.- Б.11

REFERENCES

1. Boltaboev, H. (2007). Sources describing Fitrat's Istanbul period. In Fitrat and Jadidism: Scientific research articles (p. 30). Tashkent: Alisher Navoi National Library of Uzbekistan.
2. Ganiev, I. (2005). Fitrat and Fitrat Studies (p. 8B, 216). Tashkent: Fan.
3. Umarova, M. (2013). Artistic time in historical drama: Shakespeare and Fitrat (p. 114). Tashkent.
4. Boltaboev, H. (2000). Abdurauf Fitrat: Selected works (Vol. 1, p. 22). Tashkent: Ma'naviyat.
5. Boltaboev, H. (2022). Representatives of Jadid literature: Abdurauf Fitrat. Anthology (p. 23). Tashkent: Zabarjad Media.
6. Boltaboev, H. (2007). Unknown Fitrat. In Fitrat and Jadidism: Scientific research articles (p. 11). Tashkent: Alisher Navoi National Library of Uzbekistan.